



**EKSTREMIZM TUSHUNCHASI VA UNING ZAMONAVIY TAHDID
SIFATIDAGI MOHIYATI**

Husanboev Sardor Abdukarimovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada ekstremizm tushunchasining nazariy-huquqiy asoslari, uning kelib chiqish sabablari va zamonaviy tahdid sifatidagi mohiyati tahlil etiladi. Muallif turli ilmiy manbalar asosida ekstremizmning mafkuraviy, psixologik va huquqiy jihatlarini yoritib, ushbu xavfli hodisaga qarshi kurashning samarali yo'nalishlarini belgilaydi. Xususan, yoshlar tarbiyasi, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, qonunchilikni takomillashtirish kabi choralar muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: ekstremizm, mafkura, tahdid, profilaktika, huquqiy asos, radikalizm

**ПОНЯТИЕ ЭКСТРЕМИЗМА И ЕГО СУЩНОСТЬ КАК
СОВРЕМЕННОЙ УГРОЗЫ**

Хусанбоев Сардор Абдукаримович

соискатель Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-правовые основы понятия экстремизма, его причины и сущность как современной угрозы. На основе анализа научных источников автор раскрывает идеологические, психологические и правовые аспекты экстремизма, акцентируя внимание на эффективных мерах противодействия. Особое внимание уделяется



воспитанию молодежи, формированию идеологического иммунитета и совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: экстремизм, идеология, угроза, профилактика, правовые основы, радикализм

THE CONCEPT OF EXTREMISM AND ITS ESSENCE AS A MODERN THREAT

Khusanboev Sardor Abdurakimovich

applicant of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Annotation: The article examines the theoretical and legal foundations of the concept of extremism, its causes, and its essence as a modern threat. Drawing on various scholarly sources, the author explores the ideological, psychological, and legal dimensions of extremism and outlines effective countermeasures. Particular attention is given to youth education, building ideological immunity, and improving legislation.

Keywords: extremism, ideology, threat, prevention, legal basis, radicalism

Ekstremizm bugungi kunda global va milliy darajada eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Unga qarshi samarali kurash olib borish uchun jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit yaratish, yoshlarni tarbiyalash, axborot makonida xatarlarni bartaraf etish, ta’lim-tarbiya tizimida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, huquqiy va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ekstremizm – bu shunchaki radikal fikr emas, balki jamiyat va davlat



xavfsizligi uchun jiddiy tahdid bo‘lgan murakkab mafkuraviy-siyosiy hodisadir. Uning ildizlari, kelib chiqishi va ifodalanish shakllarini chuqur o‘rganish, unga qarshi samarali profilaktika ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

XXI asrda evolyusion yuksalishni boshdan kechirayotgan ekstremizm insoniyat hayotining ko‘plab sohalariga tobora kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda, bugungi kun barqarorligini izdan chiqarmoqda va kelajakka bo‘lgan ishonchni yo‘qotmoqda.

Shu bois, ekstremizmning mohiyatini ochib berish, ushbu xavfli hodisaga qarshi kurashning tarixiy, sotsiologik, siyosiy, psixologik, axborotli va boshqa jihatlarini aniqlashga imkon beradigan tushuncha va atamalar tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ekstremizm hodisasi o‘z ildizlari bilan asrlar qa’riga borib taqaladi va inson hayotining ko‘plab sohalariga ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz siyosiy va ilmiy adabiyotida “ekstremizm” atamasi turli jihatlardan yoritilgan bo‘lsa-da, bu ko‘p qirrali hodisani ta’riflashda yaxlit fanlararo yondashuv mayjud emas. Bu esa uning mohiyatini tushunishni qiyinlashtiradi, nafaqat ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish, balki ushbu munosabatlarni madaniy tarzda tahlil qila oladigan uslubiy vositalarni o‘rganish imkonini ham bermaydi. Natijada, ekstremizmni belgilovchi sabablar va omillarni aniqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ekstremistik faoliyatga qarshi kurashish samaradorligini pasaytiradi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Ekstremizm— (lotincha “exstremus” eng oxirgi, o‘ta ketgan, ashaddiy, keskin) siyosatda va mafkurada ashaddiy , favqulotda usullar bilan yo‘l tutishga, keskin choralar ko‘rishga tarafdarlik”[1] deb ta’rif berilgan.

Shuningdek, S.I.Ojegov va N.Yu.Shvedovalar ekstremizmga quyidagicha ta’rif beradilar: “ekstremizm - bu (odatda siyosatda) eng keskin qarashlar va chora-



tadbirlarga sodiqlik” [2].

Siyosatshunoslik adabiyotlarida “Ekstremizm - siyosat va g‘oyalarda ekstremistik qarashlar va harakatlarga sodiqlik” [3]deb ko‘rsatib o‘tilgan.

D.Mamatqulovning fikricha avvalo g‘oya deganda ijtimoiy xarakter va manfaatni ifodalovchi, o‘z davri uchun yangi va dolzarb bo‘lgan, inson ruhiyatiga kuchli ta’sir etadigan tafakkur mahsuli tushuniladi [4]. Bu ta’rifda muallif g‘oyaning mohiyatini bir nechta muhim belgilar orqali izohlagan: ijtimoiy xarakter, manfaatlilik, dolzarblik, yangilik va inson ruhiyatiga ta’sirchanlik. Ushbu jihatlar g‘oyani shunchaki fikr yoki qarash emas, balki ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir etuvchi kuchli mafkuraviy vosita sifatida ko‘rsatadi. D.Mamatkulov fikri shundan dalolat beradiki, g‘oya nafaqat aqliy hosila, balki amaliy jarayonlarga ta’sir qiluvchi kuchli ruhiy-axloqiy resursdir.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, bu ta’rif mukammal va hayotiydir. Zero, har qanday ijtimoiy-siyosiy jarayonlar zamirida muayyan g‘oya yotadi. Tarixiy misollarda ham biz g‘oyaning inson faoliyatini yo‘naltirishdagi, xalqni safarbar etishdagi va davlat qurilishidagi o‘rnini ko‘ramiz

Diniy tadqiqotlar nuqtai nazaridan E.G. Filimonov ekstremizmni “o‘ta keskin qarashlar va harakatlarga moyillik” sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, bu hodisa “ijtimoiy hayotning istalgan sohasida, u yoki bu muammoning yechimi bo‘yicha turli xil fikrlar va nuqtai nazarlar to‘qnash kelganda yuzaga kelishi mumkin” [5]. Bu bilan uallif ekstremizmni muayyan bir sohaga bog‘lamaydi, balki uni universal – ya’ni turli sohalarda namoyon bo‘ladigan holat sifatida baholaydi. Bu yondashuv juda muhim, chunki ekstremizm faqat diniy sohadagina emas, balki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va hatto madaniy muhitda ham yuzaga kelishi mumkin.

E.G. Filimonovning fikri ayniqsa din sog‘lom mulohaza va bag‘rikenglikka asoslanishi kerak bo‘lgan sohadir degan nuqtai nazarda dolzarbdir. Chunki diniy sohadagi keskin qarashlar ko‘pincha “absolyut haqiqatni faqat biz bilgan holdagi tushuncha” asosida shakllanadi va boshqalarning fikrini mutlaq rad etishga olib



keladi. Bu esa, muallif ta'kidlaganidek, fikrlar to‘qnashuvi orqali zo‘ravonlikka moyil holatni vujudga keltiradi.

Bu qarashlar, chora-tadbirlar, g‘oyalar yoki harakatlar o‘z xususiyatiga ko‘ra siyosiy, irqchilik, millatchilik, diniy, separatistik, jinoiy va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. V.Yu. Vereshchagin va M.I. Labunets ta’kidlashicha, ekstremizm - bu o‘z tamoyillarini majburiy tarzda yoyishni, muxoliflarga nisbatan toqatsizlikni va ularni zo‘rlik bilan bostirishni nazarda tutuvchi mafkuradir [6]. Bu ta’rif ekstremizmning zo‘ravon va murosasiz tabiatini yaqqol ochib beradi. Unda ekstremizm faqat qarash yoki fikr emas, balki mafkura, ya’ni muayyan g‘oyaviy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda asosiy e’tibor zo‘rlik, majburlash va toqatsizlik kabi xavfli elementlarga qaratilgan.

N.N. Afanasev ekstremizmning ta’rifini boshqa nuqtai nazarga nisbatan murosasizlik va keskin qarama-qarshilikka asoslangan “o‘ta keskin talqinlar” va “harakat usullariga” sodiqlik sifatida ochib beradi: “Ekstremizm - bu har qanday me’yor hissining tubdan inkor etilishidir. U, hech bo‘lmaganda, o‘zining yaqin va uzoq maqsadlarini amalga oshirishga intilayotgan qismida voqelik haqidagi buzilgan, noto‘g‘ri tasavvurlardan foydalanadi. Tilda bu fikrlarning keskinligi, murosasizligi va qat’iyligi bilan ifodalanadi. Amaliy faoliyatda esa bu muqarrar ravishda zo‘ravonlikka olib keladi”[7]. N.N. Afanasevning ekstremizmga bergen ta’rifi uning faqat shaklda emas, mazmunda ham muqarrar ravishda zo‘ravonlikka yetaklovchi jarayon ekanini yoritadi. U ekstremizmni fikriy keskinlikdan tashqari, axloqiy me’yorlarni inkor etish, haqiqatni burmalash va amaliy xavfga aylanish holati sifatida ko‘radi. Bu esa bugungi global muammolar fonida ushbu tahdidni faqat mafkuraviy emas, psixologik, axborotli va huquqiy jihatdan ham bartaraf etish zarurligini anglatadi.

Ekstremizm tushunchasini jinoiy xatti-harakatning muayyan ko‘rinishi sifatida yuridik jihatdan kvalifikatsiya qilish zaruratidan tashqari, tarixiy ildizlarini, yuzaga kelishining ijtimoiy – psixologik sabab va oqibatlarini o‘rganish, nihoyat,



siyosiy jihatdan tahlil qilish ehtiyoji tug‘ilmoqda. Shu sababli biz ekstremizm tushunchasining ma’no-mazmunini yoritib o‘tishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ekstremizm (lotincha-“aql bovar qilmas darajada”, “haddan oshish”) jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi[8]. Shu bilan birga Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlari mavjud [9].

Ekstremizm atamasini umumiy va keng tarqalgan tushuncha sifatida aynan tarjima qilinganda (lotincha extremus - keskin, ashaddiy) “jamiyatda mavjud tartib va qoidalarni keskin inkor etuvchi qarashlar va harakatlarga sodiqlik” - degan ma’noni anglatadi. Ekstremizmning ma’nosи aniq, ochiq oydin va sodda tuyulishiga qaramay, ekspertlar orasida ushbu tushunchaning turli talqinlari mavjud. Bugungi kunda jahon ekspertlar jamoatchiligi orasida ekstremizmni ta’riflash borasida yakdillikning yo‘qligi, bu tushunchani ta’riflashning usullari qanchalik to‘g‘riliyi yuzasidan keskin munozaralarga sabab bo‘lmoqda [10].

Keltirilgan ta’riflarga ko‘ra, ekstremizm, asosan, o‘z tamoyillarini majburan tiqishtirishni, ushbu mafkura taqozo etayotgan fikrlardan farqli fikrlarga nisbatan murosasizlikni talab qiluvchi va mafkuraviy muxoliflarni bartaraf etishni oqlovchi mafkura sifatida tushuniladi.

M.Rustambaev O‘zbekiston Respublikasi JKning maxsus qismiga bergan sharhida ekstremizm - eng keskin qarashlarga, borliqqa ishonch hissi (odatda, siyosatda), “o‘zining shak-shubhasiz haqligiga, haqiqatni faqat o‘zi bilishiga ishonch hissi so‘nggi choralarga - zo‘ravonlik harakatlariga moyilliги bilan ajralib turadigan diniy ekstremizmning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Bunda muayyan shaxs ham, boshqa dinka mansub ijtimoiy guruh ham yoki shu dinning o‘z vakillari tomonidan rad etilayotgan mazhabga mansub vakillari ham ta’sir ko‘rsatish ob’ekti sifatida tanlab olinishi mumkin” deb ta’rif bergan [11].

M. Rustambaevning ta’rifi ekstremizmni huquqiy nuqtai nazardan chuqr,



mukammal va hayotiy jihatdan tavsiflaydi. U ekstremizmning faqat g‘oya emas, balki jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi amaliy tahdid ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, u ekstremizmning sub’ektiv asosi (ishonch, murosasizlik) va ob’ektiv namoyon bo‘lishi (zo‘ravon harakatlar, diniy taassub) o‘rtasidagi bog‘liqlikni oolib beradi. Demak, “ekstremizm – shaxs yoki guruhning muayyan g‘oya (siyosiy, diniy, millatchilik va h.k.) atrofida izchil birlashuvi va ushbu g‘oyani keskin, murosasiz usullardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadini ifodalovchi harakatlar yig“indisidir” [12].

Keltirilgan ta’riflarga ko‘ra, ekstremizm asosan o‘z tamoyillarini majburan singdirishni talab qiladigan, ushbu mafkura belgilagan fikrlardan farqli qarashlarni qabul qilmaydigan va mafkuraviy raqiblarni bostirishni oqlaydigan g‘oya sifatida tushuniladi.

Ekstremizmning aniq va ravshan belgilovchi mezonlarini aniqlashdan asosiy maqsad jamiyatga va qonunga qarshi muayyan harakatlar (masalan ma’lum irqiy, milliy yoki diniy nafratni uyg‘otish)da mujassam bo‘lgan destruktiv g‘oyalarga qarshi kurash zarurligini shunchaki tasdiqlash emas, balki ularni yuqoridagi mezonlarga to‘g‘ri kelmaydigan g‘oyalardan aniq ajratib olishdir.

Bundan yaqqol ko‘rinadiki, ekstremizmni ta’riflashga yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, yagona mezonlar to‘plami mavjud emas va har bir tadqiqotchi ekstremizmni ta’riflovchi o‘z mezonlarini taqdim etadi. Ekstremizmning mezonlariga aniq va keng qamrovli bahoni rossiyalik ekspert M.Krasnov bergen. Uning fikricha, quyidagilarga yo‘naltirilgan g‘oya va doktrinalarni tarqatishga oid faoliyat ekstremizm deb hisoblanishi kerak, bular [13]:

- odamlarni sinfiy, mulkiy, irqiy, milliy yoki diniy belgilariga qarab ajratish;
- inson huquqlarini oliy konstitutsiyaviy qadriyat sifatida inkor qilish;
- qonuniy plyuralizm, fikrlarni erkin tarqatish va almashishning qonuniy imkoniyatlarini yo‘qotish;



- yagona mafkurani davlat mafkurasi sifatida o‘rnatish .

Yuqoridagi mezonlar ekstremizmni baholashdagi yondashuvlar va qarashlarning butun xilma-xilligini to‘liq aks ettira olmasa-da, ular bu hodisani tushunishga samarali yordam beradi deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, bu yerda asosiy prinsip sifatida xatti-harakatlar va g‘oyalarni shaxs huquqlari hamda jamiyat va davlat manfaatlariga nisbatan keltiradigan tahdidi nuqtai nazaridan baholash mezoni sifatida qo‘llaniladi degan xulosaga keldik.

“Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida” O‘RQ-489-son Qonunning “Asosiy tushunchalar” bo‘limida “ekstremistik faoliyat” va “ekstremizm” atamalari bir xil ma’noda talqin qilinib, ularning mazmuni ochib berilgan. Bizning fikrimizcha, qonun chiqaruvchi bu hodisaga umumiyligi va qamrovli ta’rif berishni lozim topmagan holda, ekstremistik faoliyat (ekstremizm) tushunchasi o‘z ichiga quyidagi faoliyat turlarini qamrab olishini qayd etadi. Jumladan,

ekstremizm — ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, hokimiyatni zo‘rlik ishlatib egallahsga va uning vakolatlarini o‘zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi [14];

ekstremistik faoliyat — quyidagilarga [14]:

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, hududiy yaxlitligi va suverenitetini buzishga;

hokimiyat vakolatlarini egallahsga yoki o‘zlashtirishga;

qonunga xilof qurolli tuzilmalar tuzishga yoki ularda ishtirok etishga;

terrorchilik faoliyatini amalga oshirishga;

zo‘rlik yoki zo‘rlik ishlatishga oshkora da’vat qilish bilan bog‘liq holda milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga;



jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga, shuningdek ekstremistik tashkilotlarning atributlarini yoki ramziy belgilarini tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga;

biror-bir ijtimoiy guruhga nisbatan siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy, etnik yoki diniy adovat yoxud dushmanlik sababli ommaviy tartibsizliklarni amalga oshirishga;

yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan harakatlarni amalga oshirish uchun oshkora da’vat qilishga qaratilgan harakatlarni rejalashtirishga, tashkil etishga, tayyorlashga yoki sodir etishga doir faoliyat;

Ushbu tushunchaning mohiyati 2001-yil 15-iyunda Shanxay shahrida imzolangan Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Shanxay konvensiyasida eng batafsil talqin etilgan: “ekstremizm - hokimiyatni zo‘ravonlik yo‘li bilan qo‘lga kiritishga yoki zo‘ravonlik bilan saqlab qolishga, shuningdek davlatning konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga qaratilgan har qanday harakat, xuddi shuningdek jamoat xavfsizligiga zo‘ravonlik bilan tajovuz qilish, jumladan yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlarda noqonuniy qurolli tuzilmalarni tashkil etish yoki ularda ishtirok etish, hamda Tomonlarning milliy qonunchiligiga muvofiq jinoiy tartibda ta’qib qilinadigan harakatlar” [15] deb belgilab berilgan.

Demak, ekstremistik yo‘nalishdagi turli jinoyatlarga xos bo‘lgan yagona xususiyatlar va belgilar majmuasini aniqlash, zarur hollarda ularni qonunchilik darajasida tuzatish, aniqlashtirish, ziddiyatlar va bo‘sliqlarni bartaraf etish maqsadida zamонавиј huquqshunoslik fani rivojlanishining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ekstremizm faqat diniy sohada emas, balki siyosiy, madaniy, ijtimoiy va axborot maydonida ham namoyon bo‘luvchi ko‘p qirrali mafkuraviy hodisa ekani ta’kidlanadi. Uning ildizlari tarixiy, ijtimoiy va



psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, murakkab va dinamik tusga ega. Shu bois, ekstremizmga qarshi kurash nafaqat huquqiy yo‘nalishda, balki ta’lim, ma’rifat, axborot siyosati va mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqali ham amalga oshirilishi lozim. ekstremizmga qarshi samarali kurashish uchun uning nazariy asoslarini chuqur anglash, ilmiy-amaliy yondashuvlarni birlashtirish, mafkuraviy, huquqiy va profilaktik mexanizmlarni takomillashtirish talab etiladi. Bu esa jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishning muhim kafolati hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E, Madvaliev A. va boshq. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/
2. 2 Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. М., 1993.
3. Политология: Краткий энциклопедический словарь-справочник. Ростов н/Д; М., 1997.
4. Mamatkulov D. M., Mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi. Monografiya .-T:,2023 . B-10
- 5.Филимонов Э.Г. Христианское сектантство и проблемы атеистической работы. Киев, 1981
6. . Верещагин В.Ю., Лабунес М.И. Политический экстремизм: этнонациональная институционализация и регионализация. Ростов н/Д, 2002.
- 7.Афанасев Н.Н. Идеология терроризма // Сотсиално-гуманитарные знания. 2002. № 1



8. Fayzullaev D.O.. Yoshlar orasida ekstremizm va radikalizmni tarqalishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirishning o‘ziga xos xususiyatlari. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/26621/17230/25737>.

9 Глотов В.А. Региональный опыт противодействия экстремизму и терроризму в современной России: на примере г. Москвы. 2010. Дисс.к.п.н. С-72. <https://www.disscat.com/content/regionalnyi-opyt-protivodeistviya-ekstremizmu-i-terrorizmu-v-sovremennoi-rossii>

10. Muxiddinov D.S. Ekstremizm va uni o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlarning tahlili. CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS).2022. B-39

11. Rustambaev M. O‘zbekistan Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharxlar. Maxsus kism/ - T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. - 343 b

12 .Karimov I.I. Ekstremizm tushunchasi, shakllari va mohiyati: qiyosiy huquqiy tahlil // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 4 (2023) B. 52-60

13. Muxiddinov D.S. Ekstremizm va uni o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlarning tahlili. CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS).2022. B-41

14. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyuldagи “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-489-son Qonunning 3-moddasi

15. Шанхайская Конвенция о борьбе с терроризмом, сепаратизмом и экстремизмом (Шанхай, 15 июня 2001 г.) // [Электронный ресурс]. <https://lex.uz/docs/2066678>